



THE IMPACT OF THE GREAT SILK ROAD ON CHANGES IN SOCIAL LIFE DURING THE HEPHTHALITE PERIOD

Shokhrukh Sultanov

Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ephthalites, Great Silk Road, early Middle Ages, Sogd, Turks, Vagn, Vagnpat, religion, archaeological object, written monument.

Received: 10.05.25

Accepted: 12.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: The Ephthalites, one of the largest states of the early Middle Ages, left an indelible mark on history. Their empire covered the lands from East Turkestan to the Caspian Sea. They also established their own order in the central part of the Great Silk Road, which passed through this vast territory. The article describes the impact of this road on the life and social structure of the Ephthalites.

BUYUK IPAK YO'LINING EFTALIYLAR DAVRIDAGI IJTIMOYIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLARGA TA'SIRI

Shohruh Sultonov

Oriental universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Eftallar, Buyuk ipak yo'li, ilk o'rta asrlar, so'g'd, tukiylar, vag'n, vag'npat, din, arxeologiya ashyosi, yozma yodgorlik.

Annotatsiya: Ilk o'rta asrlarning yirik davlatlaridan biri bo'lgan eftallar tarixda o'chmas iz qoldirishgan. Ularning imperiyasi Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Ular mana shu katta hududdan o'tuvchi Buyuk ipak yo'lining markaziy qismida ham o'z tartiblarini o'rnatishgan. Maqolada shu yo'lining eftallar hayotiga, ijtimoiy tuzumiga ta'siri bayon etiladi.

ВЛИЯНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ НА ИЗМЕНЕНИЯ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ В ЭПОХУ ЭФТАЛИТОВ

Шохрух Султанов

Oriental университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Эфталиты, Великий Шелковый путь, раннее Средневековье, Согд, тюрки, Вагн, Вагнпат, религия, археологический артефакт, письменный памятник.	Аннотация:	Будучи одним из крупнейших государств раннего Средневековья, эфталиты оставили неизгладимый след в истории. Их империя охватывала земли от Восточного Туркестана до Каспийского моря. Они также установили свой порядок в центральной части Великого Шелкового пути, который проходил через эту обширную территорию. В статье описывается влияние этой дороги на жизнь и социальную структуру эфталитов.
------------------------	--	-------------------	--

Ta'kidlash lozimki, turkiy va mahalliy aholining diniy ta'limotlari va madaniyatlari sintezi masalasiga etibor qaratsak bu jarayonning V-VIII asrlarda etnosiyosiy jarayonlar natijasida nechog'lik o'ziga xos rivojlanganligini ko'ramiz. Masalan, O'zbekiston hududidagi sug'diy va turkiy etnoslari orasida zardushtiylik e'tiqodi ko'p asrlik (mil. avv. I ming yil. - mil. VIII-IX asrlargacha) tarixga ega. A. Otaxo'jayevning yozishicha Sug'diylarning yetakchi dini zardushtiylik, sug'd kolonial harakati orqali mintaqaga tarqaldi. Xitoy sayyohi va buddaviy rohibi Syuan Szan (VII asr): «turklar olovga e'tiqod qilishar edi. Shu bois ular yog'och taxtdan foydalanmasdilar», deb yozganida turkiylarning zardushtiylikka bo'lgan e'tiqodini nazarda tutgan [8, 93].

568 yilda Yettisuvga kelgan Vizantiya elchisi Zemarxning yozishicha, elchilar Istami yabg'u qarorgohi oldida sharqqa qarab cho'kkalab o'tirganlar. So'ngra bo'ri kallasi tasviri tushirilgan bayroqqa ta'zim bajo keltirib, yonib turgan olov bilan poklanganlar. Shundan so'nggina Istami yabg'u o'tirgan ulkan chodir - qarorgohga kirganlar [4, 163]. Bunda u turk-sug'd umumiylikining bir jihatini - turklarning tangrichilik an'anasi: sharqqa qarab o'tirish va ko'k bo'ri totemiga e'tiqod hamda sug'diylarning zardushtiylikka xos bo'lgan muqaddas olov orqali poklanish udumlari sintezini ko'rgan edi.

Markaziy Osiyoning shimoli-sharqida makon topgan muhojir sug'diylar asrlar davomida mahalliy turkiylarga zardushtiylikni targ'ib qilib, birgalikda zardushtiylik ibodatini amalga oshirganlar. Sharqiy Turkistonda Sug'ddagi kabi, ehrom - "vag'n" bunyod etilib, koinlar - "vag'npatlar" diniy amallarni bajo keltirishgan. Turkiylar samimiy va bag'rikeng bo'lgani bois, biror-bir manbada tangrichilik e'tiqodidagi turkiylarning bu jarayonga qarshilik qilinganligi haqida ma'lumot uchramaydi [10, 52].

Sug'diylar orqali zardushtiylik hatto Xitoyga ham kirib bordi. Uning elementlari Xitoy tasviriy san'atida o'z aksini topdi. Dunxuandan topilgan R 3929 raqamli hujjatda, sug'diylar olovga sig'inishlari va ularning ibodatxonalari borligi zikr etiladi. Bundan tashqari Shimoliy Vey

sulolasi poytaxti Loyandagi muhojir sugʻdiy savdogarlar oʻzlariga zardushtiylik ibodatxonasi barpo etganlar [12, 218]. Hatto xitoyliklar va ularning maʼmuriyati ham sugʻdiylarning diniy eʼtiqodlariga moneʼlik koʻrsatishmagan.

Qolaversa, Turkiy va sugʻdiylar aralash yashagan hududlardan topilgan ostadonlar misolida bu ikki qavmning zardushtiylik taʼsirida urf-odati ham sintezlashganligini kuzatamiz. Hatto bu vaqtdagi Oʻzbekistondagi zardushtiylik Sosoniylar Eroni zardushtiyligidan farqlagan. Eronda zardushtiylik rasmiy davlat dini maqomida, qatʼiy talablar asosida rivojlangan. Oʻrta Osiyoda esa, diniy tolerantlik negizida unga amal qilingan. A. Otaxoʻjayevning yozishicha Sugʻd zardushtiyliги «mazdachilik» yoki mazdayasna dini deb yuritiladi. Oʻrta Osiyo xalqlari eʼtiqodining asosi boʻlgan bu diniy qarashlar tizimida Axuramazda, Mitra, Nana kabi ilohalarga eʼtiqod alohida oʻrin tutgan. Sugʻd jamiyati etnik va diniy murosaning eng adolatli yoʻlidan borgani bois, biror-bir manbada Sugʻdda roʻy bergan etnik va diniy mojaro haqida maʼlumot uchramaydi. Xususan, Xitoy doimo oʻz buddaviy rohiblarini Oʻrta Osiyoga yuborib turgan. Syuan Szandan tashqari, Chjang Chyan, Ban Chao, Chju Sishing, Fa Syan, Sung Yun Xuey Sheng, Shyuan Zang Vu Kung kabi rohiblarturli maqsadlarda Oʻrta Osiyoga tashrif buyurishgan [8, 59]. Qolaversa, mintaqada keng tarqalgan dunyo dinlaridan biri buddavviylik edi. Bu dinning antik davr va ilk oʻrta asrlarda Oʻrta va Markaziy Osiyoga yoyilganligini qator arxeologik ashyolar va yozma yodgorliklardagi maʼlumotlar tasdiqlaydi.

Turk xoqonligiga qadar Oʻrta Osiyo (Baqtriya va Parfiya) buddizmning Xitoyga tarqalishidagi tranzit hudud hisoblangan. Targʻibot ishlarida koʻplab oʻrtaosiyolik missionerlar ishtirok etgan. Jumladan, manbalarda targʻibotchi-tarjimonlar sugʻdlik Kan Mensyan va qangʻlik Kan Szyuxay nomlari zikr etilgan. Xitoy tarixchisi Van Chjilayning yuechjilarni dastlabki buddaviy targʻibotchilari edi, deyishi esa bu dinni dastlab yuechjilar qabul qilganligini isbotlaydi.

IV-V asrlarda buddaviy adabiyotlarni xitoy tiliga oʻgirgan tarjimonlar orasida 16 ta oʻrtaosiyolik: oltita yuechjey, toʻrtta parfiyalik, uchta sugʻdlik, ikkita kuchalik - tohar va bitta xoʻtanlik boʻlgan. Manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, Xitoyga buddizm Oʻrta Osiyodan, Sharqiy Turkistonga esa Hindiston - Qoraqurum dovonidan oʻtib kelgan. Sharqiy Turkistondagi sugʻdiylarning bir qismi to moniy dini vakillari bu mintaqalarga kirib kelguniga qadar buddaviylikka eʼtiqod qilishgan. Moniyar kirib kelgach, buddaviy-moniy dinlari sintezi roʻy bergan. Ayniqsa, buddaviy sanʼat namunalarida moniylik taʼsiri kuzatiladi. Bundan tashqari buddizm taʼsirida sanʼat va meʼmorchilikda hind, baqtriya va ellin-rim anʼanalarining sintezi koʻzga tashlanadi. Bu boy madaniy merosdan mintaq xalqlari qatori turkiylar va sugʻdiylar bahramand boʻlishgan. Oʻz navbatida uni yana takomilashtirishga xizmat qilganlar.

Sugʻdning oʻzida buddaviylik kam tarqalgan. Faqat tasviriy sanʼat namunalari uning belgilari koʻzga tashlanadi. Panjikent devoriy suratlaridagi Maytrei tasviri va Buddaning oʻtirgan holatini beruvchi terrakota shakli sof buddaviy namunalardan farqlanib, ularda sugʻdiy va buddaviy anʼanalari sintezini kuzatish mumkin. Oʻrta Osiyodagi buddaviylik hind madaniyatiga “koʻprik” vazifasini oʻtab, madaniy aloqalarini kuchaytirgani alohida ahamiyatga ega.

Xoqonlik hududiga buddaviylik anʼanalarining kirib kelishida asosiy translyator vazifasini sugʻdiy va hind missionerlari oʻynagan. Ulardan biri 574 yilda Chjou hukmdori U-dining quvgʻiniga uchrab, xoqonlik hududidan panohtopgan hind missioner-rohibi Chinogupta boʻlgan. Buddaviy matnlarni tarjima qilishda sugʻdiy til va yozuv muhim oʻrin tutgan. Taspar xoqon uchun baʼzi buddaviy sutralar turk tiliga tarjima qildirdi. Tarjimonlik va kotiblik ishini, koʻproq sugʻdiylar amalga oshirgan. Bunda jamiyatdagi bilingivizm anʼanalari muhim oʻrin tutgan. Xoqonlik aholisining aksariyati bu davrda tangrichilik - koʻk-osmon bilan bogʻliq, azaliy - Ashina davri eʼtiqodida boʻlishgan. Qolaversa, turkiylar tangrichilik, zardushtiylik va buddaviylikda yaratguvchiga boʻlgan umumiy eʼtiqodni tushunishgan. “Bugʻut yodgorligi”da ham, Urxun bitiklaridagi kabi xoqon oʻz vazifasiga koʻra Tangri va xalq oʻrtasidagi vositachi ekanligi taʼkidlanadi. Chunki turklarning umumiy diniy eʼtiqodi yigirma yil (535-555) ichida ularni qabilalar ittifoqiga birlashtirib, qudratli davlat tuzishlariga imkon bergan edi. VI asrning 70-yillarida Turk xoqonligi xalqlari hayotiga zardushtiylik va buddaviylik kabi dinlarning kirib kelishi va ular hayotidan oʻrin olishi diniy va milliy bagʻrikengligidan oʻzga narsa emas edi. Xoqonlikdagi aksariyat koʻchmanchi turklar tangrichilik eʼtiqodiga sobit qoldilar. Chunki buddaviylikdagi yumshoqlik va miskinlik, turkiy jangavor mentalitetga xos emas edi. Shu bois, Budda dinini Bilga xoqon (716-734) va uning vaziri Toʻnyuquq rad etishga jurʼat qildilar [11, 13].

Mugʻ arxivida esa Sugʻd va Sharqiy Turkiston aloqalari misolida buddaviylik bilan bogʻliq maʼlumotlar bor [6, 48-49].

VIII-X asrlarda Sharqiy Turkistondagi turk-sugʻd buddaviylari tomonidan oʻnlab diniy-falsafiy, ahloqiy asarlar tarjima qilindi. Ular V-VI va IX-X asrlargacha amal qilingan “sutra husnixati”da yozilib, buddaviy matnlar asli sanskritdan emas, xitoychadan, ayrimlari tohar B - Kucha tilidan tarjimalar edi.

Sugʻd-turk munosabatlari maʼnaviy va madaniy sintezida antik davrda Oʻrta Osiyoga, jumladan Oʻzbekistonga kirib kela boshlagan xristianlik dinining nestorian oqimi ham muayyan ahamiyat kasb etdi. III asrda Marvda, V asrda Samarqandda xristian jamoalari va mitropoliyasi vujudga keldi. Soʻngra sugʻdiy nestorianlar orqali Sharqiy Turkiston (Koshgʻar)ga yoyildi. 196

yilda yozilgan suryoniy manbalariga ko'ra, eftaliylar orasida xristianlik II-III asrlardan tarqalgan bo'lib, arman manbalarida, 451 yildagi Avarayr jangida, armanlar va eftaliylar sosoniylarga qarshi "nasroniylik qasami" bilan sulh tuzganlar. Bu ma'lumotlar O'rta Osiyoda xristianlikning tarqalishi davriga aniqlik kiritadi. Samarqand Sug'di, Buxoro va Chochga xristianlik 412-720 yillar orasida tarqalib, yepiskopiya va mitropoliya kabi diniy muassasalar tashkil qilingan. Shulardan biri Samarqand janubidagi Shavdorning Vazkerd qishlog'ida X asrgacha faoliyat yuritgan. Qishloqning shimoli-sharqidagi qoyada suryoniy yozuv va xoch tasviri, soy jarliklaridan topilgan ostodonlardagi xoch tasviri esa zardushtiylik va xristianlik o'rtasidagi sintez elementlarini ko'rsatadi. Qo'shtepadagi (Urgut yaqinida) ehrom kompleksidan topilgan xumda cho'qintirish marosimi - biri o'tirgan, biri tik holda qo'lida xoch ushlagan ikkita erkak tasvirlangan. Shu ehromda zardushtiylarning otashdonlarining ham topilgani bu yerda turli diniy jamoalar ibodat qilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yer osti ibodatxonalari ko'plab qurilgan. Buxoro Sug'di va Ustrushonadan [2, 87] xristian dini timsollari tushirilgan buyumlar va tangalar topilishi ham bu din tarqalgan hududlar ko'lamini belgilaydi.

O'rta Osiyoga nestorian oqimidan tashqari, "mulkiylar" oqimi (Xorazm) ta'sir o'tkazgan. Xristianlar o'z dinlari targ'ibotidan tashqari, hukmdorlarning saroylarida tabib, olim va tadbirkor sifatida ham davlat ishlarida faol ishtirok etishgan. Bu esa O'rta Osiyoda barcha din vakillarining o'zaro hamjihatligidan dalolat beradi. Faqat arab istilosi bu an'anaga barham berdi. Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, Buxorodagi Attaron darvozasi yaqinidagi cherkov arablar tomonidan buzilib, o'rniga masjid qurilgan. Uni Narshaxiy «otashparastlar kalisiyo (ibodatxona)si bo'lgan» [7, 67] deb, yozadi.

Xristianlik IV-VII asrlarda turkiy qabilalar yashaydigan hududlarga tarqaldi. Jumladan, Tarozdan topilgan suryoniy yozuvli idish, IV-VI asrlarga oid Qanqa harobalaridagi xristianlar ehromi, xoqonlik markazi Suyobdagi Oq Beshim harobasidan topilgan cherkov harobasi, Dashti O'rdakon qabristonidan topilgan bronza xoch tushirilgan va xumga dafn etilgan qizcha suyak qoldiqlari hamda xum tashqarisida egilib turgan xoch tasviri aks etishi kabilar xristianlikning ta'sir doirasini ko'rsatadi. Xristianlik Ilye III patriarxlik qilgan XII asrgacha Navakat va Koshg'arda saqlanib turdi. IX-XI va XII-XV asrlarga oid sug'd-turk, suryoniy-turk epigrafik yodgorliklari xristianlikning Yettisuvda uzoq saqlanganligi isbotlaydi. Ularning bu yerlarda ehromlar va cherkovlar qurishiga turkiylar hukmdorlar va turk-sug'd aholisining monelik qilmagani ibratlidir [8, 61].

Milodiy I ming yillik o'rtalaridan xristianlik O'rta Osiyo orqali Sharqiy Turkistonga kirib bordi. VII-VIII asrlarda Sharqiy Turkiston va Xitoydagi sug'diy va turkiy jamoalar orasida xristianlikning keng yoyilishida diniy adabiyotlar katta o'rin tutgan. Xristianlik ta'limotiga oid

asarlar suryoniy yozuvi (estrangalo)da sugʻd tiliga koʻchirilgan. Diniy matn namunalari Turfon vohasi va Buloyiqdan topilib, VI (576 yil) - X asr sugʻdiy jonli muloqot tilida yozilgan. Yana bir xristian yodgorligi Kashmir va Tibet chegarasidagi Ladakdagi qoyatoshda samarqandlik xristian Noshfarn 841-842 yillar orasida qoldirgan sugʻdiy bitik hisoblanadi. Oʻrta Osiyo diniy murosa va bagʻrikenglik, madaniyatlar sintezi uchun qulay mintaqa ekanligi xristianlik misolida oʻz tasdigʻini topadi. Oʻrta Sharq, Oʻrta Osiyo va Markaziy Osiyo tarixida oʻziga xos oʻrin tutgan Moniy (216-276/277) taʼlimoti va u targʻib qilgan din zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik kabi dinlar sintezi edi. Moniy taʼlimoti zardushtiylikdan dualistik nazariyani, xristianlikdan xoch timsolini oldi. U nafaqat yangi din asoschisi, shoir hamda 21-23 harfli oromiy yozuvi negizida 29 harf belgisi maxsus yozuvga asos solgan olim edi.

Ammo Moniy qarashlari Eronda zardushtiy koinlar eʼtiroziga uchrab, 275 yilda Bahrom I (275-282) farmoni bilan Moniy zindonga tashlanib, qatl etildi. Uning tarafdorlari Erondan quvgʻin qilindi. Natijada moniy jamoalari Oʻrta Osiyo va Sharqiy Turkiston (Koshgʻar)dan panohtopdi. Oʻrta Osiyoda bu taʼlimoti Mar (Ustoz) Ammo ismli shaxs targʻib qilgan. IV asrda dastlabki moniy ibodatxonalari - monastirlari paydo boʻldi. Taʼlimotning VI asrda turkiylar orasidagi targʻibotida samarqandlik Kan Syuan - Chan Min ("Mangu yogʻdu")ning munosib hissasi bor edi. Sugʻdiylar taʼsirida Moniy taʼlimoti Xitoyga yoyilib, 584 yilda Xitoy sharqida moniy jamoalarining ilk ibodatxonasi qurildi. 694 yilda esa bu taʼlimot poytaxt Chanʼangacha yetib bordi [1, 103-104]. 600-yilda moniylar orasida boʻlinish roʻy berdi. Oʻrta Osiyodagi dinavoriy (denawarih) mazhabi markazi Samarqandda edi. Markaziy Osiyoda bu din Uygʻur xoqonligi, qadimgi Xakas, Qirgʻiz va Kimak kabi turkiy davlatlarda to IX-X asrlargacha saqlandi. Dinlararo sintez mahsuli sifatida mintaqa xalqlari hayotida oʻz oʻrnini topdi.

Yillar davomida moniy taʼlimotining sugʻdiy va turkiy qoʻlyozmalari vujudga keldi. VII asrda sharqiy moniylik cherkovining rasmiy tili sugʻdiy til boʻlib, barcha kanonik asarlar shu tilga tarjima qilindi. Moniy taʼlimotida tasviriy sanʼatga alohida eʼtibor berilgan. Dastlab diniy mazmundagi kitoblarda Moniy talqinidagi syujetlar aks ettirilgan. Buning taʼsirini hatto Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent tasviriy sanʼati namunalari va oʻrta asrlar davri Oʻrta Osiyo minatyura sanʼatida kuzatish mumkin.

Moniydan 10 ta kitob (7 tasi diniy-taʼlimot asosi (kanoni) - aqidlariga bagʻishlangan) saqlanib qoldi. Uning izdoshlari tomonidan koʻplab turli mazmun va mavzudagi asarlar yaratildi.

Oʻzbekiston hududidagi oʻsha davr aholisi islom dinini qabul qilgach, moniylar shia va ismoiliya mazhablariga taʼsir etgan. Beruniyning yozishicha, moniylar asosan islom dini taʼsiridan uzoq boʻlgan oʻlkalardan panohtopgan [3, 242-243]. Shunday boʻlsa-da, ilk oʻrta

asrlarda yoyilgan moniylik ta'limoti mintaqadagi turkiylar va sug'diylar hayotida o'ziga xos iz qoldirdi.

Mintaqa shaharlari diniy murosa va bag'rikenglik markazlari edi. Ularda turli dinga e'tiqod qiluvchi aholi yashagan. Jumladan, Qorabolg'asun "shahar aholisi turklar va olovga topinuvchilar (zardushtiylar - A.O.) hamda zindiq (moniy)lardan iborat" bo'lganligi hamda X asrda ham Turfondagi beshta "bektegin" qishlog'i sug'diylarga tegishli bo'lib, aholisi xristian, zardushtiy va sabiy (moniy yoki buddaviy) diniga e'tiqod qilganligi turk-sug'd munosabatlaridagi hamjihatlikni aks ettiradi.

Mintaqa xalqlari ma'naviy hayotida yozuv madaniyati muhim ahamiyat kasb etdi. Oromiy yozuvi asosida mil. avv. V—III asrlarda O'rta Osiyo mahalliy 22 harfdan iborat mustaqil alifbolar tizimi vujudga keldi. Sug'diylar oromiy yozuvining uch xil yozuv turidan (xususiy sug'diy, moniy va suryoniy) foydalanganlar. Yozuvlarning moniy va suryoniy shakli diniy matnlar uchun, "xususiy sug'd yozuvi" esa buddaviy matnlar va devon hujjatchiligida keng qo'llanildi. Bu yozuvning sug'diy manzilgohlar orqali turkiy xalqlar orasida yoyilishi natijada VIII—IX asrlarga kelib uyg'ur yozuvi shakllandi. Keyinchalik uyg'ur yozuvi ta'sirida mo'g'ul va manjur yozuvlari tizimi — galik yozuvi vujudga keldi. Undan esa oyrot va buryat yozuvlari hosil bo'ldi.

Markaziy Osiyoda, ayniqsa O'zbekistonda sug'd yozuvi IV—XI asrlarda xalqaro maqom darajasida bo'lib, turkiy davlatlarining rasmiy hujjatchiligida qo'llanildi. Mintaqada turk—sug'd ikki yozuvlik va ikki tillilik muhiti yaratildi. Ulkan hududda katta hajmdagi madaniy va ma'naviy merosga asos soldi. Bu xitoy, qadimgi turk va Xo'tandagi eroniy manbalar bilan sug'diy manbalarni qiyoslash imkonini berdi. Sug'diy yozuvdagi eng qadimgi namunalarni milodning boshlariga oid O'zbekiston hududidan topilgan tangalarda asosli ko'rinadi. Qolaversa, O'zbekistondan topilgan sug'diy matnlar janri xilma-xil bo'lib, ularda zardushtiylik alqovlaridan, turkiy duolargacha aks etgan. Bu turk-sug'd madaniy va ma'naviy yaqinligining ifodasi edi. Sug'dda esa sug'diy til va yozuv qatorida turkiy til va yozuv ham amal qilgan. Mug'arxivida turkiy til va yozuvli matnlar topilgani Sug'dda, xususan Devashtich saroyida turkiy til egalari (framandor O'tt kabi) xizmat qilishganini va turkiy til amalda qo'llanganini isbotlaydi. Ko'p asrlik turk-sug'd munosabatlari VI-IX asrlardagi turkiy davlatlar tarixiga oid "Bug'ut yodgorligi", "Qorabolg'asun bitiklari", Sevrey-somon marmar qoyasidagi vertikal yozuv, Tayxir-cho'lun qoyasidagi yozuvlar, Teraksoy va Qulonsoy daralaridagi XI asr - 1025 yilga oid "kelib-ketuvchilar"ga dahldor bitiklarda o'z aksini topgan.

Turkshunos Ye.D. Polivanov fikricha, turk alifbosi, ma'lum bir bosqichni bosib o'tib, shu ko'rinishda bizgacha yetib kelgan. Yozuv shakli, fonetikasi, shu hududga xosdir. Turkiy til

shimoliy (turkiy-sirlar), janubiy (uygʻur) va shu ikki lahja aralashgan diniy (moniy va buddaviy) matnlar tili asosida shakllangani bois yozuv ham shunga moslashtirilgan. A.S. Amanjolov turkiy alifboni mil. avv. 1-ming yillikda qadimgi yunon va shimoliy semit-finikiy hamda janubiy semit alifbolariga bogʻlaydi. Ammo R. Goto, V. Tomsen va V. A. Livshis, M.M. Isʻhoqov kabilar bu yozuv VI-VII asrlarda sugʻd yozuvi taʼsirida shakllangan desalar, J. Kloson qadimgi turk yozuvi ildizini sugʻd-baxtar-pahlaviy yozuvlardan izlaydi. Turkshunos S.G. Klyashtorniy qadimgi turkiy yozuvini bevosita sugʻdiy yozuvi bilan bogʻlab, turkiy alifbo grafik shakllari jiddiy oʻzgarishlar va qoʻshimchalar qabul qilgan holda turkiy til fonetikasiga moslashtirilgan deb, izohlaydi. V.A. Livshis shu fikrni qoʻllab, turkiy yozuv asosan monumental, yaʼni tosh bitiklarga moslashganligiga va 583-588 yillarda bitilgan “Bugʻut yodgorligi” asosida VI asrgacha turkiy yozuvi shakllanmaganligiga eʼtiborni qaratadi. Boshqa bir tadqiqotchilar turkiy bitiklarning VIII-X asrlarga oid qismini yozuv shakllanish davriga asos qilib olganlar. Bizningcha, qadimgi turk yozuvi V-VI asrlardan mustaqil rivojlanib, oʻz taraqqiyotida sugʻdiy yozuv elementlaridan unumli foydalangan. Chunki turkiy yozuv klassik sugʻdiy yozuvidan farqlanadi [8, 69].

Qadimgi turk yozuviga sugʻd yozuvining taʼsiriga misol harfiy belgilarning grafemofonetik mosligidir. Agar turk-sugʻd munosabatlarining koʻp asrlik tarixga ega ekanligini eʼtiborga olsak, “sugʻdcha faraz” tabiiydek koʻrinadi. Turkiylar 22 alifboli sugʻd yozuvini oʻz fonetik xususiyatlaridan kelib chiqib 42 taga yetkazganlar. Umuman olganda, sugʻdiy yozuv asosidagi turkiy yozuv tizimi asosan tosh bitiklar yozishga moslashtirilib, turkiy tili shevalaridagi fonetik qoidalariga boʻysundirilgan. Turkiy yozuv namunalari nafaqat, Markaziy Osiyo, balki Yettisuv va Oʻrta Osiyodan ham topilmoqda. Ayniqsa, XX asrning 70- yillarida qozogʻistonlik arxeolog K. Akishev Almati yaqinidagi Issiq qoʻrgʻonidan mil. avv. 1 ming yillik oʻrtalariga mansub qabr sirtiga Urxun yozuvlariga oʻxshash, lekin oʻziga xos ikki qator yozuv bitilgan kumush kosacha topib, uni fanga “Issiq yozuvi” deb, kiritdi [9, 50]. Afgʻonistonning Dashti Navuridagi qoyatosh sirtidan topilgani turkiy yozuv, “Issiq yozuvi” namunasidagi Surxondaryo va Amudaryo havzasidan topilgan nomaʼlum yozuvlar (mil. avv. II va mil. I—II asrlar) sanasi turkiy yozuvni sugʻdiy yozuv bilan tengdosh ekanligini koʻrsatadi. Qolaversa, qadimgi turkiy yozuvlar (milodiy VII-X asrlar) va keyingi yillarda topilgan yozuvlar (mil. avv. I va milodiy I-II asrlar) oʻrtasidagi umumiy ildiz mavjud. Agar parfiya, xorazm va sugʻd yozuvlari kabi turkiy yozuv ham Old Osiyoning qadimiy yozuv anʼanalari asosida oʻziga xos taraqqiyot yoʻlidan shakllangan va rivojlangan deb, hisoblasak, bu yozuv madaniyati ildizlarini aniqlash borasida hali oldinda qilinadigan ishlar koʻpligini koʻrsatadi. Bundan tashqari, turkiylar va sugʻdiylarning arab yozuvi joriy qilinguniga qadar runiy, sugʻdiy, uygʻur, moniy, braxma, suryoniy kabi yozuvlardan foydalanganliklari [5, 31], ularning yuksak bilim darajasi va

ma'naviy salohiyatidan darak beradi. Garchi hozirda sug'diy til o'lik til hisoblansa-da, bu tilning dialekti hisoblangan Yag'nob vodiysi aholisining tili - yangi sug'diy til sifatida fanga ma'lum. Afsuski, yag'nobiylar tili shu kunlarda tojik tili muhitida asta-sekin yo'qolish arafasida. Turk-sug'd madaniy aloqalarida shaharsozlik alohida o'rin tutadi. Sug'diylarning savdo faoliyati va manzilgohlar tashkil etishi III—V va VII-VIII asrlarda dastlab Yettisuvda turkiy shaharsozlik madaniyatiga ta'sir etdi. Arxeologlar Chu vodiysidan V-VI asrlarga oid madaniy qatlam topib, uni vodiy shaharlarida hunarmandchilik, savdo va dehqonchilik bilan band bo'lgan sug'diylarga bog'lashadi. Sug'diy manzilgohlari yirik turk-sug'd shaharlarga aylanib bordi. Ilk o'rta asrlarda ayniqsa, Chochda va sug'diy manzilgohlar va turkiy qishloqlar asosida Buyuk Ipak yo'li bo'ylab yana o'nlab shaharlar bunyod etildi [8, 71].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Vatan tarixi. Toshkent: Sharq, 2010.
2. Toshboyev F. Ustrushona chorvadorlarining antic davrdagi madaniyati. Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014.
3. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1—жилд. — Тошкент: Фан, 1968.
4. Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007.
5. Исҳоқов М., Содиқов Қ. Китоб маънавият кўзгуси // Тафаккур. - 1996. - № 4.
6. Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар.
7. Наршахий. Бухоро тарихи // Мерос туркуми. - Т.: Камалак, 1991.
8. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари – Тошкент: ART-FLEX, 2010.
9. Раҳмон Н. Иссиқ ёзуви // Мулоқот. - 1994. - № 11-12.
10. Раҳмонов Н. Турк хоқонлиги.
11. Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси. - Т.: Чўлпон, 1995.
12. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар.